

## **Inspeksiyaning vazifa va funksiyalari**

**1.** Kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

kichik hajmli kemalarni ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini, shuningdek bunday kemalardan va ular turadigan bazalardan (inshootlardan) foydalanish qoidalarini buzish huquqbuzarliklarini oldini olish, aniqlash, ularga qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rish tadbirlarini tashkil etish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan, ularga tegishli bo'lgan kichik hajmli kemalarni ro'yxatdan va texnik ko'rikdan o'tkazish;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshirish;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion siyosat olib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda va maqsadli ilmiy-texnik dasturlarni tasdiqlashda ishtirok etish;

kema haydovchilarini o'qitishni tashkil etish va amalga oshirishda ishtirok etish;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida Vazirlik tizimidagi harbiy xizmatchi va xizmatchilarni xodimlarini qayta tayyorlash

va malakasini oshirishni tashkil etish;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida ilg'or xorij tajribasini o'rganish va targ'ib qilish;

kichik hajmli kemalardan va ular turadigan bazalardan (inshootlardan) xavfsiz foydalanishda davlat nazoratini tashkil etish.

**2. a)** *kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:*

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirishda ishtirok etadi;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish tizimini rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va vazirlik rahbariyatining imzosi bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

**b)** *kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, shuningdek bunday kemalardan va ular turadigan bazalardan (inshootlardan) foydalanish qoidalarini buzish huquqbuzarliklarini oldini olish va profilaktika tadbirlarini tashkil etish sohasida:*

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi hamda nazorat qiladi;

hududiy boshqarmalarning Kichik hajmli kemalar bo'yicha inspektorlari tomonidan kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini tashkil etadi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

kichik hajmli kemalardan foydalanish jarayonida avariya va halokatlarning o'z vaqtida oldini olish va oqibatlarini yumshatishni ta'minlaydi;

kichik hajmli kemalardan ular turadigan bazalardan (inshootlardan) xavfsiz foydalanish, ularni o'rnatilgan tartibda belgilangan muddatlarda ro'yxatdan va texnik ko'rikdan o'tkazish sohasida targ'ibot va axborot ta'minotini amalga oshiradi, kichik hajmli kemalardan foydalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslarni o'qitishni tashkil etadi.

*v) kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshirish sohasida:*

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanishni tashkil etish bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlarida belgilangan talablar bajarilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanishda texnik reglamentlar, standartlar, me'yorlar, qoidalar va boshqa huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va ko'rib chiqadi;

respublikaning barcha suv akvatoriyalarida odamlarning suvdagi xavfsizligini ta'minlash maqsadida kichik hajmli kemalar va ularning turargoh bazalaridan to'g'ri foydalanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

*g) kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish davrida ichki suv xavzalarida favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda ular to'g'risida kema egalari va foydalanuvchilarini o'z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilishni tashkillashtirish sohasida:*

jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining Inspektsiya vakolatiga taalluqli murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ushbu masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralarni ko'radi;

ichki suv xavzalarida kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish davrida favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda yoki sodir bo'lganda kema egalari va foydalanuvchilariga avtomatlashtirilgan tarzda xabar berish va ogohlantirish tizimi yaratilishida ishtirok etadi;

kichik hajmli kemalar ko'p to'planadigan joylarda, ichki suv xavzalarida muntazam profilaktika tadbirlarini o'tkazadi, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish muammolarini yechishda o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro samarali hamkorlik olib boradi;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish davrida ichki suv xavzalarida favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda yoki sodir bo'lganda barcha aloqa va ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kema egalari va foydalanuvchilariga tezkor xabar berishni nazorat qiladi;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirishga tegishli bilim va tajribaga ega bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlar, shu jumladan, chet ellik fuqarolar va xorijiy tashkilotlarni jalb qilish ishlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

*d) kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion siyosat olib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va maqsadli ilmiy-texnik dasturlarni tasdiqlash sohasida:*

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasidagi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi hamda amalga oshiradi.

*e) kema haydovchilarini o'qitishni tashkil etish va amalga oshirish sohasida:*  
kema haydovchilarini tayyorlashda ishtirok etadi;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish bo'yicha ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini ko'rib chiqadi va kelishishda ishtirok etadi;

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida kema haydovchilarini tayyorlash jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni va keng foydalanishni ta'minlashda ishtirok etadi.

*j) favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, shuningdek ilg'or xorij tajribasini o'rganish, umumlashtirish va targ'ib qilish sohasida:*

kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohalarida o'rnatilgan tartibda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda, shuningdek, xalqaro shartnomalar loyihalarini ishlab chiqishda Inspeksiya vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha ishtirok etadi.

Inspeksiya qonunchilikka muvofiq boshqa funktsiyalarni ham bajaradi.